

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/29.12.2023. Ped.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

YUSUPOVA ADOLAT PRIMQULOVNA

**DUAL TA'LIM ASOSIDA O'QUVCHILARNI KASBIY
FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктор философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Yusupova Adolat Primqulovna

Dual ta'lim asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini
takomillashtirish 3

Юсупова Адолат Примкуловна

Совершенствование методики подготовки учащихся к
профессиональной деятельности на основе дуального образования 23

Yusupova Adolat Primkulovna

Improving methods of preparing students for professional activities based
on dual education 47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 51

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/29.12.2023. Ped.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

YUSUPOVA ADOLAT PRIMQULOVNA

DUAL TA'LIM ASOSIDA O'QUVCHILARNI KASBIY
FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent– 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped4260 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Professional ta'limni rivojlantirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.ipitvet.uz) va "ZiyoNet" axborot- ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kadirov Xayot Sharipovich

Pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Hamidov Jalil Abdurasulovich

Pedagogika fanlari doktori, professor

Nuriddinov Bahodir Sobirovich

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Professional ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "21" 02 soat 14:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Chimboy 2, 96-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17, faks: (+99871) 246-90-37, e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Professional ta'limni rivojlantirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (118 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Chimboy 2, 96-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17, faks: (+99871) 246-92-17).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "07" 02 kuni tarqatildi.

(2025 yil "07" 02 da 22 raqamli reyestr bayonnomasi)



R.X.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., akademik

S.Yu.Ashurova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

J.A.Hamidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotni rivojlantirishda professional ta'lim muassasalarida mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sifatini takomillashtirish, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Bu borada rivojlangan mamlakatlarda inson kapitali sifatini oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etib, YUNESKO ta'lim siyosatini yuritish sektori (Education Sector)ning 2030 yilgacha belgilagan xalqaro ta'lim konsepsiyasida «hayot davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish (Life learnine)»¹ ga alohida e'tibor qaratilgan. Unda ta'limni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, raqobatbardosh va professional kadrlarni tayyorlashda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifa etib belgilangan. Shu nuqtai nazardan, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning dual ta'lim jarayonini modellashtirishda kasbiy mobillik (academic mobility) va o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llash va amaliyotga joriy etish dolzarbligicha qolmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida kasbiy ta'lim mazmuni va metodologiyasini ilmiy-nazariy ta'sirlarini o'rganish natijalari o'quv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari mazmunini zamonaviy didaktik talablarga moslashtirish, dual ta'lim shaklida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini takomillashtirish, o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni optimallashtirish maqsadida dual ta'limni samarali tashkil etishda integrallashgan o'quv jarayonini loyihalashtirish, ta'limiy-innovatsion g'oyalarni yaratish bilan bir qatorda "ta'lim - ishlab chiqarish" yaxlitligini ta'minlashdagi mavjud muammolarining didaktik asoslari va metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini bildirmoqda. BIBB (Federal Institute for Vocational Education and Training) tashkiloti tomonidan dual education tizimining samaradorligini, mehnat bozorida o'zgarishlarni, ta'limi sifatini yaxshilash bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda². Bunda, kasbiy ta'limda amaliyotga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy mazmuni bilan nazariy tahlillar natijalarini, ta'lim jarayonining amaliyot bilan bog'liqligini, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini tadqiq etish zarurati yanada oshadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda Germaniya Xalqaro hamkorlik tashkilotining (GIZ) "O'zbekistonda professional ta'lim tizimini isloh etish va modernizasiya qilish jarayonini qo'llab-quvvatlash" (TexVET) loyihalari doirasida milliy kasbiy standartlar, kompetensiyaga asoslangan o'quv dasturlari va zamonaviy baholash usullari ta'limda qo'llash, ta'lim tarbiya mazmunini, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasini rivojlantirishning konseptual tamoyillarini aniqlashtirish, o'quv-ilmiy talablarini dual ta'lim asosida shakllantirish borasida tizimli islohatlar amalga oshirilmoqda. Professional ta'limning asosiy missiyalarini

¹ Designing effective monitoring and evaluation of education systems for 2030: A global synthesis of policies and practices (UNESCO Education Sector Division for Policies and Lifelong Learning Systems, January 2016), p 38,52,77.

² Hippach-Schneider, Ute; Huismann, Adrienne: "Germany - VET in Europe - 2016 Country Report". Published by BIBB in the context of ReferNet Country reports by CEDEFOP. Bonn 2016.

amalga oshirish hamda tizimga zamonaviy ta'lim olish shakllarini joriy etish, mutaxassislarni tayyorlashda ta'limning uzluksizligi va amaliy yo'nalganligini ta'minlash, nazariya va amaliyot o'rtasidagi integratsiya kesishuvini ta'minlash ehtiyoji ta'lim jarayoniga o'qitishning dual ta'lim shaklini joriy etish masalalarini qo'yimoqda. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida "kasbiy ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, sohada institutsional yaxlitlikni ta'minlash va boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish hamda ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos malakali va raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlash shuningdek mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish"³ ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi. Shu bois, xalqaro tajribalar asosida, dual ta'limni joriy etish, dual ta'limda o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ №-637-sonli "Ta'lim to'g'risida" qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son "Kasbiy ta'limda malakali kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi 466-son "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi, 2021-yil 29-martdagi 163-son "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi hamda 2023-yil 7-dekabrda 647-son "Professional ta'lim muassasalariga yil davomida o'quvchilarni dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilish tizimi joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularning amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta'limini takomillashtirish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari muammosi bo'yicha vatanimiz va xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Kasbiy ta'limining shakllanish va rivojlanish jarayoni, qonuniyatlari va tendensiyalari,

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16-oktabrdagi PF-158 son "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni

muammolarini R.X.Djurayev, Sh.E.Qurbonov, J.Yo'ldoshev, Q.T.Olimov, N.A.Muslimov, S.Yu.Ashurova, J.Hamidov, X.Kadirov, T.Shoyardonov⁴ va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan; o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolari bo'yicha D.Ximmataliyev, A.A.Nazarov, O.To'rakulov, Sh.Sharipova, Z.To'xtayeva, Z.S.Qodirova va boshqalarning tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan; kasbiy ta'limda naraziya va amaliyot o'rtasidagi integratsiyani muvofiqlashtirish hamda dual ta'limni joriy etish masalalari yuzasidan R.K.Choriyev, M.M.Xolmuxamedov, F.X. Gaffarov, A.A.Xasanov, L.X.Gaffarov, A.K.Avliyakov⁵ va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida kasb ta'limida kadrlar tayyorlash sifatini amaliyotga ustuvorlik berish asosida rivojlantirish muammolari va istiqbollari bo'yicha G.A.Fedatova, L.N.Samoldina, S.P.Romanov,⁶ M.A.Shuvalova, Yu.M.Izmaylova va boshqa olimlarning tadqiqot ishlarida yoritilgan; kasb ta'limi mutaxassislarini dual ta'lim tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metadalogik konseptual va texnologik asoslari bo'yicha N.V.Matveyev, Yu.M.Izmaylova, V.T. Sopegina, N.K.Chapayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ilmiy amaliy jihatdan o'rganilgan.⁷

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda A.Blum, S.Jones, M.Brockmann, C.Winch, L.Clarke, P.Mehaut, N.Kilbrink, V.Bjurulf⁸ singari olimlar kasbiy bilim va mahorat, amaliy kasbiy texnologiyalar, dual kasbiy ta'lim kasbiy ta'lim tarixi va taraqqiyoti kabi yo'nalishlar bo'yicha taqdidot ishlarini olib borganlar.

Ilmiy tadqiqot ishi mavzu yuzasidan o'rganilgan tahlillar asosida professional ta'lim muassasalarida o'qitishning dual ta'lim shaklini tashkil etishda mutaxassislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlash metodikasini o'quv mashg'ulotlarining tashkiliy shakllari, metodlari va vositalarini takomillashtirish va dual ta'limda ta'lim beruvchilarning simmetrik hamkorlikdagi ta'siri doirasini kengaytirish orqali takomillashtirish muammolari mavjudligi haqida xulosa berish mumkin. Bu esa mazkur muammoni tadqiq etish zaruratini taqozo etadi.

⁴ Olimov. Q.T.Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari. p.f. doktorlik disser. –T.: - 2005. – 58 b.; Muslimov N.A. Kasb-ta'limi tinglovchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Diss. p.f.d. – T.:2007. – 275 b.; Ashurova.S.Yu. Engil sanoat yo'nalishlari bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlashda maxsus fanlarni modulli o'qitishning ilmiy-uslubiy asoslari.p.f.f. doktorlik disser. –T.: - 2005. – 26 b.;

⁵Choriyev R.K. Kasb ta'limi mutaxassislarini dual ta'lim tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish: p.f. bo'yicha falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoref.- T.: 2020.22 b.; Gaffarov F.X Professional ta'lim tizimida nazariya va maliyot integratsiyasini ta'minlash metodikasi p.f. bo'yicha falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoref.- T.: 2022. 21.b.; Avliyaqulov A.K. Professional ta'lim tizimida dual o'qitish o'quv qo'llanma. -Toshkent.: 2024 y, 32-33. B;

⁶ Федотова Г.А. Развитие дуальной формы профессионального образования (опыт ФРГ и России): дис. ... док. пед. наук. – М., 2002. – 138 с.; Самолдина Л.Н. Научно-методическое обеспечение дуальной целевой профессиональной подготовки студентов в ССУЗ: дис. ... канд. пед. наук. – Казань, 2008. – 272 с.; Романов С.П. Развитие дуальной системы инженерно- педагогического образования в высшем учебном заведении: дис. ... док. пед. наук. – Новгород: 2008. – С.50.;

⁷ Н.В.Матвеев Инновационное управление техникумом в условиях дуального образования Афтореф. Дисс. ... канд. пед. Наук. - Великий Новгородб 2018, 22 с.;

⁸ A.Blum The development of an Integred Science Curriculum. Information Scheme Fur. // Science Education 1981, vol. 3, - p. 1-15.; Kilbrink, N., Bjurulf, V., Olin-Scheller, C., // Experiences of educational contentin Swedish technical vocational education: Examples from the energy and industry programmes. International Journal of Training Research, M. (2014). 12(2), 122–131.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Professional ta'limni rivojlantirish instituti ilmiy tadqiqot rejasining IL-5821081323 - "Dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta'lim texnologiyalarni ishlab chiqish" (2023-2025 yillar) mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

professional ta'lim mazmunini kompetensiyaviy, konseptual, sinergetik yondashuvlar asosida takomillashtirishda o'quv jarayoni pedagogik aspektning kategoriyalarini aniqlash;

professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim asosida o'quv jarayonini tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik tuzilmasi mazmunini zamonaviy didaktik talablarga moslashtirish;

professional ta'limning didaktik va metodik ta'minotini optimallashtirish asosida dual ta'lim shaklida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli va metodikasini takomillashtirish;

dual ta'lim asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni samaradorligini tajriba-sinov ishlarini o'tkazish hamda olingan natijalarga matematik-statistik ishlov berish orqali aniqlash va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida professional ta'lim muassasalarida 711400-Transport vositalari muhandisligi yo'nalishi bo'yicha o'quvchilarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni belgilangan (jami respondentlar soni 297 dan iborat).

Tadqiqotning predmeti Dual ta'lim asosida texnika va sanoat yo'nalishlari bo'yicha o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni, metodlari, shakl va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni(komparativ) qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, sotsiometrik (suhbat, anketa, test, intervyu); pedagogik tashxis, tajriba-sinov, psixologik-pedagogik hodisalarning tizimli tahlili, monitoring, matematik statistik tahlil natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kompetensiyaviy, konseptual, sinergetik yondashuv asosida professional ta'limda amaliyotga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy mazmuni bilan nazariy tahlillar natijalarini integrasiyalash orqali dual ta'lim shaklining pedagogik aspektlari kategoriyalari(motivatsion-akmeologik, ontologik-kognitiv, texnologik-faoliyatli va reflektiv) aniqlashtirilgan;

dual ta'lim asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik tuzilmasi mazmuni hamkorlikda o'qitish, individual yo'nalganlik, variativ mustaqil ta'limga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli motivatsion hamkorlik va kasbiy vaziyatga yo'naltirilgan "Cooperative learning" va "Score-2" kabi muammoli o'qitish ta'lim texnologiyalarini ta'limning tarkibiy-tashkiliy komponentlari(tashkiliy, mazmunli, jarayon-didaktik)ga yaxlitlash orqali takomillashtirilgan;

professional ta'lim muassasalarida amaliyot va nazariyaning muqobil almashinuvchanligini ta'minlash va malaka talablaridan kasbiy bilimlarni sintezlash asosida ta'lim oluvchilarning kasbiy rivojlanganligini baholash mezonlari (kognitiv, reproduktiv-faoliyatli, produktiv-faoliyatli va mustaqil-innovatsion) ishlab chiqish orqali dual ta'limning protsessual va metodik ta'minoti takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dual ta'lim asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy asoslangan tashkiliy-pedagogik modeli pedagogik aspektga ustivorlik berish asosida takomillashtirilgan;

professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini optimallashtirish maqsadida "Temir yo'l umumiy kursi" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovasiyalar vazirligining 2023 yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'i, №537586, UO'K: 625.10);

professional ta'lim muassasalarida (dual ta'lim asosida ta'lim jarayoni tashkil etilgan) faoliyat olib borayotgan ta'lim beruvchilar (maxsus fan o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalari) uchun "Dual ta'lim asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash" nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan (UO'K: 37(075.8);

Professional ta'limning 40711507-Temir yo'l transportida elektr ta'minoti va 41040105-Temir yo'l transporti kuzatuvchisi yo'nalishlari o'quvchilariga ta'lim jarayonida foydalanishga mo'ljallangan "Dual ta'lim o'quvchi kundaligini yuritish bo'yicha yo'riqnoma" ishlab chiqilgan;

41040105-Temir yo'l transporti kuzatuvchisi kasbi uchun o'quv-me'yoriy (namunaviy o'quv reja, namunaviy o'quv dasturi) va o'quv-metodik(o'qitish materiallari kompleksi)materiallar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishonchliligi xorijiy hamda OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xalqaro va respublika miqyosida ilmiy konferensiya materiallari, ilmiy-metodik takliflarning amaliyotga tadbiq etilgani, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, olingan natijalarning matematik-statistik qayta ishlov berilganligi va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan metodika, model, umumkasbiy va maxsus fanlardan o'quv-metodik qo'llanmalar, didaktik vositalardan ta'lim muassasalarida o'qitish sifati va samaradorligini oshirish, dual ta'lim jarayonini kompetensiyaviy, konseptual, sinergetik yondashuvlar asosida tashkil etish hamda o'qitish usul va vositalarini takomillashtirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan professional ta'lim muassasalari ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat ta'lim standart talablari asosida professional ta'lim tizimida dual ta'lim shaklida

o'quv jarayonini tashkil etishda ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash o'quv rejasi va ta'lim dasturlari hamda malaka talablarini takomillashtirishda hamda zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dual ta'limi asosida professional ta'lim muassasalari o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar va ishlab chiqilgan takliflar asosida.

kompetensiyaviy, konseptual, sinergetik yondashuv asosida professional ta'limda amaliyotga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy mazmuni bilan nazariy tahlillar natijalarini integrasiyalash orqali dual ta'lim shaklining pedagogik aspektlari kategoriyalarini tasniflashga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2022 yil 30-avgustdagi 295-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "40711502-Xarakatlanuvchi tarkib (Elektrovozlar, Elektropoezdlar) elektr jixozlarini ta'mirlash elektr chilangari", "40711519-Temir yo'llardan texnik foydalanish va ta'mirlash", "40711507-Temir yo'l transportida elektr ta'minoti" kasblarining mazmuniga singdirilgan. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 16 maydagi 4/17-4/2-611-son ma'lumotnomasi). Mazkur takliflar bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qilgan;

dual ta'lim asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik tuzilmasi mazmunini hamkorlikda o'qitish, individual yo'nalganlik, variativ mustaqil ta'limga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Temir yo'l umumiy kursi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'i, 537586-raqamli nashr guvohnomasi) va o'quv jarayoniga joriy etilgan. Natijada dual ta'lim asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirishga erishilgan.

professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda motivatsion hamkorlik va kasbiy vaziyatga yo'naltirilgan "Cooperative learning" va "Score-2" kabi muammoli o'qitish ta'lim texnologiyalarini qo'llashga oid o'quv metodik ishlanmalaridan IL-5821081323 - "Dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta'lim texnologiyalarni ishlab chiqish" (2023-2025 yillar) mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihagini bajarishda foydalanilgan. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 16 maydagi 4/17-4/2-611-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonining didaktik va metodik mazmuni ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta uslubiy qo'llanma, 1 ta Uslubiy tavsiyanoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop

etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan 2 ta xorijiy va 7 ta respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaga kirish, uch bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti belgilangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchiligi asoslangan, amalda joriy etilishi holati, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining **“Dual ta'lim asosida professional ta'lim o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida professional ta'limda o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik muammosi, dual ta'lim asosida o'qitish jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularning yechimlari o'rganilgan. Dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlashga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar tahlil etilgan. Ushbu omillarning ta'lim jarayonidagi ta'sir doirasi va jarayon samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari o'rganilgan. Dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlashning didaktik shart-sharoitlari hamda mazkur ta'lim olish shaklida bitiruvchi tayyorlash metodikasini takomillashtirishning dolzarbligi asoslab berilgan.


Tadqiqot ishining ushbu bobida bo'lajak mutaxassislarni dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini zamon talabiga mos ravishda shakllantirish, innovatsion texnologiyalar va yangicha yondashuvlarni ta'limda qo'llash, ta'lim sifatini nazorat qilish muammosi bo'yicha pedagog olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarning nazariy jihatlarini tahlil qilingan. Dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlashning imkoniyatlari va to'siqlari, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining kesishuvchan manfaatlari mos kontekstlar yordamida qiyosiy tahlil qilingan.

Jumladan, respublika va xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlash jarayonining sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar natijalari tahlil etilib, asosiy ta'sir etuvchi omillarning jarayondagi unumdorlik ko'lamini o'rganilgan. Ilmiy izlanishlar natijasida olingan xulosalarga tayanib, dual ta'limda kadrlar tayyorlashning tashkiliy tuzilmasi o'quv-me'yoriy va o'quv didaktik komponentlarning o'zaro mutanosiblikda, ta'limning uzviylik va uzluksizlik tamoyillari asosida takomillashtirish jarayonidagi kadrlar sifatida ijobiy dinamika ko'rsatkichlarini qayd etilishiga olib kelishi nazariy asoslangan.

Ta'lim jarayonini tashkil etishga bunday innovatsion yondashuvni amalga oshirish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerakligi nazariy asoslangan: ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlarini korxonada (tashkilotda) ishlab chiqarish

sharoitlari bilan birlashtirish maqsadida professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish; ishlab chiqilgan o'quv rejalari va dasturlarining mazmuni ish beruvchilar talablari va ularning texnologik yangiliklarini hisobga olgan holda amaliyotga yo'naltirish va muvofiqlashtirish; o'quvchilarni mehnat faoliyati ishtirokchilariga aylantirish orqali korxonalarda (tashkilotlarda) ularning kongnitiv-psixomotor va adaptiv ko'nikmalarini rivojlantirish; o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalar infratuzilmasini joriy etish; ta'lim jarayonini tashkil etishning blok-modulli darslarni interfaol ta'lim texnologiyalari (amaliyotga yo'naltirilgan simmetrik-muammoli o'qitish texnologiyalari, loyiha metodi, inversion ta'lim texnologiyalari) yordamida olib borish; ish beruvchilar ishtirokini kengaytirgan holatda professional ta'lim dasturlarida kasbiy standartga mazmunini aks ettirish orqali malaka talablarni shakllantirish; dual ta'lim asosida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan BKMni baholash mezonlarini ish beruvchilar takliflarini ta'lim tamoyillari bilan yaxlitlash orqali optimallashtirish.

Shuningdek ushbu bobda dual ta'lim asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida asosiy omil - pedagogik aspekt ekanligi ilmiy-nazariy asoslandi va pedagogik aspektning tarkibiy tuzilmasi shakllantirildi. (1-rasm).



1-rasm. Dual ta'limda pedagogik aspektning tarkibiy tuzilmasi

Olib borilgan tahlillar dual ta'lim asosida mutaxassis tayyorlashning pedagogik aspektlari professional ta'lim tizimida boshqa ta'lim olish shakllari(kunduzgi, sirtqi, kechki)i asosida tashkil etilgan o'qitish jarayonining pedagogik aspektlaridan bir qator komponentlari bilan farqlanishini ko'rsatdi.

Dual ta'limda pedagogik aspekt motivasion-akmeologik, ontologik-kognitiv, texnologik-faoliyatli va refleksiv kabi komponentlardan tashkil topadi. Quyida har bir komponentni izohlandi:

Motivatsion-akmeologik komponent – ta'lim beruvchi ma'lum kasb kvalifikatsiyasi doirasidagi malaka talabida belgilangan umumiy kompetensiyalar va o'quvchi dual ta'limning amaliy qismini olib borayotgan ishlab chiqarish korxonasining xodimlar uchun belgilangan tartib-qoidalari (koorporativ etika) bilan o'zaro muvofiqlashtirishida ko'rinadi. Bunda pedagogning ta'siri ta'lim oluvchida

jamoada ishlash va kasbga munosabatni to'g'ri mutanosiblikda shakllantirish bilan belgilandi.

Ontologik-kognitiv komponent. Ma'lumki, professional ta'limda ta'lim natijasi bitiruvchida shakllantirilgan yoki takomillashtirilgan umumiy va kasbiy kompetensiyalar bilan belgilanadi. Shunga muvofiq dual ta'lim asosida bitiruvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogning ma'lum kasb doirasida belgilangan kasbiy kompetensiyalar va kasb standartida belgilangan xodimning ish joyidagi harakatlarini yaxlitlashi lozim. Bu jarayon pedagogik aspektning ontologik-kognitiv komponentini belgilaydi. Bunda pedagogning faoliyati kognitiv bilimlar, psixomotor ko'nikmalarni aniq kasbiy xarakterlar asosida muvofiqlashtirib borishida namoyon bo'lishi aniqlandi.

Texnologik-faoliyatli komponent nazariy ta'limdagi o'quv topshiriqlarini amaliy ta'limdagi kasbiy vaziyatlar bilan bir kontekstda joylashuvini nazarda tutadi. Bu pedagog amaliy darslarning yo'riqli-texnologik xaritasini tuzishda, o'quv topshiriqlarni ishlab chiqishda o'quvchi ta'limning amaliy qismini olib borayotgan jarayondagi aniq kasbiy vaziyatlarga muvofiqlashtirishi kerakligini anglatadi.

Refleksiv komponent o'quvchining nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni umumlashtirishida va sintezlashida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda pedagog ta'lim natijalari va ishlab chiqarish jarayonidagi xodimning samaradorligi o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni belgilay olishi lozim. Dual ta'lim o'quvchining mustaqil ta'lim olishi va o'zini-o'zi ta'lim trayektoriyasini belgilashini rag'batlantiradi. Shu bois pedagogning bu jarayonni qo'llab-quvvatlashi va o'quvchini o'zini-o'zi baholashga va takomillashtirishiga yo'naltira olishi pedagogik aspektning refleksiv komponentini belgilaydi.

Tadqiqot ishining **“Dual ta'lim asosida professional ta'limda o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida asosiy e'tibor professional ta'limda dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlashning tashkiliy-pedagogik modeli, ijtimoiy-pedagogik hamkorlikka ustuvorlik berish asosida dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalalariga qaratildi.

Tadqiqot ishining ushbu bobida dual ta'lim asosida kasbiy ta'lim o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining pedagogik shart-sharoitlari, ta'lim jarayoniga joriy etish va natijadorligini ta'minlash masalalari yoritilgan. Dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlash jarayonining tashkiliy-pedagogik tuzilmasi 3 ta tarkibiy qismdan iborat tizim sifatida belgilandi:

- a) Tashkiliy-didaktik
- b) Mazmunli didaktik
- c) Jarayonli didaktik

Tashkiliy –didaktik tarkibiy qism dual ta'lim asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining dastlabki didaktik masalalarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu qismda asosiy e'tibor dual ta'lim asosida o'qitish jarayonini tashkil etishda ehtiyojlar – maqsadlar – jarayon – natija kontekstining tashkiliy aspektlarining uzviyligi va izchilligini ta'minlashga qaratiladi. Bu qismni to'rt bosqich(ehtiyoj-maqsad, tizim-mazmun, jarayon-

element, jarayon-tahlil) yordamida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb belgilanib:

Ehtiyoj-maqsad bosqichi - tashkiliy-didaktik materiallarni ishlab chiqishda birinchi qadam ta'lim maqsadlari va ta'lim natijalarini aniqlashdir. Bu mehnat bozori talablar, ish beruvchilar va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ehtiyojlarini tahlil qilish asosida amalga oshirilishi kerak.

Dual ta'limda ishtirokchi tomonlar ehtiyojlarning muvofiqlik nuqtalarida kesishuvi samarali natijalarga erishishni belgilay oladi.

Bu o'z navbatida kooperativ maqsadlarni belgilanishi talab etadi;

Tizim-mazmun bosqichi - ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish tashkiloti mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlarini yaxlitlash orqali bajariladi;

Jarayon -element bosqichi - dual ta'lim ishtirokchilari imkoniyatlari, talablari va ehtiyojlari asosida ma'lum me'yoriy-huquqiy asoslar doirasida amaldagi me'yoriy hujjatlar(o'quv rejasi, o'quv dasturi) elementlari joriy etiladi, ularning tuzilish, hajm va mazmun jihatdan optimallashtirishni belgilaydi;

Jarayon-tahlil bosqichi - yuqoridagi bosqichlarni sintezlash va takomillashtirib borish vazifasini bajaradi. Bunda shakllantirilgan ta'lim maqsadlari mazmuni, tizimlashtirilgan jarayon grafigi holatlari o'rganib boriladi.

Mazmunli-didaktik tarkibiy qismda professional ta'limda dual ta'lim asosidagi o'quv jarayoni ta'lim beruvchilarining individual va o'zaro hamkorlik faoliyati birlamchi o'rin tutadi. Ushbu tarkibiy qism ham to'rt bosqichda(motivatsion-akmeologik, ontologik-kognitiv, texnologik-faoliyatli, refleksiv) amalga oshirilib, bosqichlarni belgilashda dual ta'lim asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoninig pedagogik aspektlari asos qilib olindi.

Jarayonli-didaktik tarkibiy qism dual ta'lim asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'quv topshiriqlari ishlab chiqish masalalarini o'z ichiga oladi

Tadqiqoti doirasida dual ta'lim uchun murakkablik darajasi bilan farqlanuvchi o'quv topshiriqlari shakllantirildi. (A daraja – modellashtirilgan, B daraja – yo'nalishli-amaliy, C daraja – yo'nalishli-mustaqil, D daraja – mustaqil-innovatsion) Ushbu topshiriqlarning darajalanishi ikkita asosiy vazifani bajaradi:

- a) o'quv jarayonini soddadan-murakkablikka tamoyili bo'yicha algoritmlaydi;
- b) ta'lim natijalari va o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini belgilashda asos vazifasini bajaradi.

Modellashtirilgan topshiriqlar - O'quvchini ma'lum bir jarayonni nazariy izohlash, jarayon izchilligini ta'riflash, nusxalash, tayanch iboralar tuzish, jadval, test, savol tuzishga yo'naltirish maqsadida;

Yo'nalishli-amaliy topshiriqlar ma'lum jarayonni nazariy-amaliy izohlash, algortm asosida harakatlar ketma-ketligini bajarish, o'quvchini jarayonni tahlil qilishga, nazorat ostida mustaqil harakatlanishga yo'naltirish maqsadida;

Yo'nalishli-mustaqil topshiriqlar o'quvchini ma'lum jarayondagi amaliy harakatlarni notanish vaziyatlarda qo'llay olishga, variativ faoliyatga rag'batlantirish maqsadida; Mustaqil-innovatsion topshiriqlar natijadan-maqsadga

tamoyili asosida ma'lum talablarni belgilash, o'quvchining mustaqil-innovasion faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida ta'lim jarayoniga tadbiriq etishni nazarda tutadi. Dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlash jarayoning tashkiliy-pedagogik tuzilmasi professional ta'limda dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlashning tashkiliy-pedagogik modelini takomillashtirishda asosiy element vazifasini bajardi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish hamda pedagogik izlanish natijalarini umumlashtirish asosida professional ta'lim tizimi o'quvchilarining dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlashning tashkiliy-pedagogik modeli takomillashtirildi (2-rasm).

Dual ta'limda jarayon ishtirokchilarining o'zaro motivatsion hamkorligi va ta'limning amaliy yo'nalganligiga ustuvorlik berilgan ushbu model to'rtta (maqsadli; mazmunli; pedagogik; natija) bloklardan iborat.

Modelda ijtimoiy ehtiyoj sifatida Davlat ta'lim standartlari, Ta'lim dasturlari (Malaka talabi, na'munaviy o'quv reja va na'munaviy o'quv dasturi)ni mehnat bozori talablariga muvofiqashtirish nazarda tutilib, jarayonning maqsadi etib Professional ta'limda dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlash metodikasini takomillashtirishdan iboratligi belgilangan.

Jarayonning yondashuvlari kompetensiyaviy, konseptual, hamda sinergetik yondashuvlar bo'lib, bunda ta'lim obyektlararo konseptual tavsifga ega bo'lib, professional ta'lim o'quvchilarining umumiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda bilim va ko'nikmalarni(ta'lim muassasasi va ishlab chiqarishda) sinergetik tarzda sintezlashni o'z ichiga oladi.

Jarayonning tamoyillari shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tizimlilik va izchillik, ta'limning amaliy yo'nalganligi bo'lib, dual ta'lim tamoyillari va zamonaviy ta'lim tamoyillari bilan uyg'unlashadi.


Olib borilgan tadqiqot ishining asosiy g'oyalari va ilgari surilayotgan ilmiy gepotezaga tayanib modelning mazmunli blokida asosiy e'tibor dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlashning sifatini oshirish ta'lim beruvchilarning o'zaro samarali hamkorligi sifatiga mutanosibligiga qaratildi.

Shu bois, ushbu blokda dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlash jarayoning tashkiliy-pedagogik tuzilmasi tizimlashtirildi.(tashkiliy-didaktik, mazmunli-didaktik, jarayonli-didaktik) Bunda ta'lim mazmunini real ishlab chiqarishdagi kasbiy vaziyatlar asosida optimallashtirish va nazariy va amaliy bilimlarning kesishuvchanligini oshirish modelning yadrosi etib belgilandi.

O'qitish jarayoni bosqichlari etib motivatsion-akmeologik, ontologik-kognitiv, texnologik-faoliyatli va refleksiv bosqichlar belgilangan bo'lib, ular dual ta'limning pedagogik aspektlari va o'qitish jarayonini o'zaro muvofiqashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishlari uchun tanlab olingan "Cooperative learning" va "Score"-2 interfaol ta'lim texnologiyalari o'quv jarayonida bajariladigan topshiriqlarni ikki tomonlama ham nazariy ham amaliyotga yo'naltirishga qaratildi.

Cooperative learning (kooperativ ta'lim) (CL) - Turli xil qobiliyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar yoki (kattalar)ning kichik jamoalari birgalikda ishlaydigan, turli xil o'quv mashg'ulotlaridan foydalanib, mavzuni tushunishlariga imkon beradigan



2-rasm. Professional ta'limda dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlashning tashkiliy-pedagogik modeli

ta'lim texnologiyasi hisoblanadi. CL (**cooperative learning**)ning asosiy 5 bosqichi quyidagilardan tashkil topgan. 1) jamoalarni shakllantirish - o'quvchilar muammolarni hal qilish uchun birlashadilar; 2) ijobiy o'zaro bog'liqlikni targ'ib qilish- o'quvchilar umumiy maqsadlariga erishish uchun yaxlit guruh sifatida ishlaydi; 3) individual javobgarlikni ta'minlash- o'quvchilar fikr almashadilar va guruhning samarali ishlashiga yordam berishadi; 4) shaxslararo va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berish; 5) guruhni qayta ishlash- o'quv jarayonini aks ettirish orqali guruh a'zolarining hissasi samaradorligi ta'minlanadi.

“**SCORE-2**”- ta'lim texnologiyasi (“**SCORE**” - Symptom, Cause, Outcome, Resources, Effect, yoki **BSNMS** - Simpton-belgi, sabab, natija, resurslar, samaradorlik) interfaol ta'lim texnologiyasi ta'lim oluvchilarda muammolarni aniqlash qobiliyati, kognitiv ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, bor manbalar va imkoniyatlardan foydalanib muammoning yechimini topishni shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi.

Olib borilgan tadqiqot ishida dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlash jarayoning didaktik sifatini oshirish maqsadida “Temir yo'l umumiy kursi” nomli o'quv qo'llanma, “Dual ta'lim asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash” nomli uslubiy qo'llanma, “Dual ta'lim o'quvchi kundaligini yuritish bo'yicha yo'riqnoma” hamda konseptual tavsifdagi didaktik materiallar ishlab chiqilgan bo'lib, ular taklif etilayotgan modelning didaktik ta'minotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Baholash mezonlari to'rt turga bo'linib, kognitiv – ta'lim oluvchining xususiyatli-mulohazali-abstrakt bilish darajasi; reproduktiv-faoliyatli- nazariy o'zlashtirilgan ma'lumotlarni amaliy ta'lim jarayonida qo'llay olish darajasi; produktiv-faoliyatli- kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga egalik darajasi, kasbiy savodxonlik, ko'nikmalarni o'zgargan vaziyatlarga o'tkazish qobiliyati; mustaqil-innovatsion - o'quvchilarning yangi va tanish bo'lmagan vaziyatlarda mustaqil ravishda muammoni aniqlab, vaziyatni baholash va yechim yo'llarini topishi bilan belgilanadi (1-jadval).

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalari baholash mezoni va sifat ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda yuqori, o'rta va past darajalariga ajratildi.

1-jadval

Dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlash jarayoni o'zlashtirish darajalari va baholash mezonlari tavsifi

Mezon Daraja	Past (Reproduktiv)	O'rta (Produktiv)	Yuqori (Ijodiy)
Kognitiv	Xususiyatga asoslangan bilimlar (faktlar, nazariyalar, g'oyalar) asosida ma'lum muammoli vaziyatga munosabat bildirish. Amaliy harakatlarni nazariy	Mulohazali bilimlar (yo'nalishlar, mezonlar, toifalar) asosida muammoli vaziyatni tahlil eta olish. Taklif etilayotgan algortm elementlari mazmunini izohlash	Abstrakt bilimlar (nazariya, aksioma, teorema) asosida muammoli vaziyatga yechimlar taklif etish. Natijani oldindan ko'ra olish, natijaga olib boruvchi algortmni

	bilimlar asosida izohlay olmaslik		mustaqil nazariy shakllantira olish
Reproduktiv-faoliyatli	Nazariy bilimlarni amaliyotga ko'chirish. Amaliy harakatlar ketma-ketligini (yozma, og'zaki) shakllantira olish	To'liq mazmunli algortm vositasida jamoaviy holatda (ta'lim beruvchi yoki ta'lim oluvchilar yordamida) kasbiy ko'nikmalarni qo'llash	Algortm asosidagi mustaqil amaliy topshiriqlarni bajara olish. Nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarda namoyish eta olish
Produktiv-faoliyatli	Belgilangan qisqa mazmunli algortm vositasida o'rganilgan vaziyatlarda amaliy topshiriqni bajarish	Ta'lim beruvchining qisman kuzatuv va qisqa mazmunli algortm vositasida notanish vaziyatlarda kasbiy ko'nikmalarni qo'llash	To'liq mustaqillik, yangi vaziyatlarda belgilangan yondashuvlar asosida kasbiy ko'nikmalarni qo'llash.
